Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Бобожонова Дилором Бобожоновa
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор, Наманган давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova
YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....5

2. Abdurasul Boltaev
TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O'RNI.....12

3. Muysin Dusaliyev
QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI.....21

4. Кобзева О.П.
ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КУШАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ОТ ТОРГОВОЙ ДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ».....30

5. Ulmas Muminov
"DASHT MADANIYATI" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....37

6. Asliddin Namazov
XX ASRNING 30-YILLARI MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING KOMFIRQA SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....42

7. Jurabek Polvonov
XIVA XONLIGI DIPLOMATIYASI VA ELCHILIK MUNOSABATLARI: TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI.....46

8. Soxiba Sulaymanova
G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI.....55

9. Rano Urazova
THE AMESHAPENTA SYSTEM IN ZOROASTRIANISM AND ITS FUNCTIONAL ESSENCE: CONCEPTS OF GOODNESS AND DIVINE ORDER.....60

10. Муродилла Ҳайдаров
Г. САФАРОВНИНГ МУСТАМЛАКА ИНҚИЛОБИ (ТУРКИСТОН ТАЖРИБАСИ) АСАРИДАН ПАРЧА.....70

11. Ғайратбек Хайдаров
ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида).....82

12. Тохир Шокиров
РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И ЕГИПТА В ДРЕВНОСТИ.....89

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Abdurasul Boltaev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
professori tarix fanlari doktori (DCs)

TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O‘RNI

For citation: Abdurasul Boltaev. THE ROLE OF THE LAND OF TURAN IN STATEHOOD. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24141272

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Turon zaminining qadimgi va o‘rta asrlar davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni, hududda ilk davlat uyushmalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda davlatchilik an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, Turon hududida yuzaga kelgan siyosiy tuzilmalar, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy taraqqiyotning davlatchilik rivojiga ta’siri yoritiladi. Maqolada Turon zaminining Markaziy Osiyo xalqlari davlatchilik an’analarini shakllantirishdagi tarixiy ahamiyati hamda uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy nuqtayi nazardan ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turon, davlatchilik, qadimgi davlatlar, Markaziy Osiyo, davlat boshqaruvi, siyosiy tuzum, tarixiy taraqqiyot, davlatchilik an’analari, sivilizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Болтаев Абдурасул,
профессор Джизакского государственного
педагогического университета,
доктор исторических наук

МЕСТО ТУРАНСКОЙ ЗЕМЛИ В ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется место Туранской земли в истории древнего и средневекового государственного устройства, этапы формирования и развития первых государственных объединений в регионе, а также особенности государственностных традиций. Рассматривается также влияние политических структур, системы государственного управления, социально-экономических отношений и культурного развития, возникших на территории Турана, на развитие государственности. Статья раскрывает историческое значение Туранской земли в формировании государственностных традиций народов Центральной Азии и её вклад в развитие мировой цивилизации с научной точки зрения.

Ключевые слова: Туран, государственность, древние государства, Центральная Азия, государственное управление, политическая система, историческое развитие, традиции государственности, цивилизация, социально-экономические отношения.

Abdurasul Boltaev,
Jizzakh State Pedagogical University,
Professor, Doctor of Historical Sciences (DSc)

THE ROLE OF THE LAND OF TURAN IN STATEHOOD

ABSTRACT

This article analyzes the role of the land of Turan in the history of statehood during ancient and medieval times, the formation and developmental stages of early state entities in the region, and the distinct characteristics of its statehood traditions. It further examines the political structures that emerged within the territory of Turan, the systems of state administration, socio-economic relations, and the influence of cultural progress on the evolution of statehood. The article explores, from a scholarly perspective, the historical significance of the land of Turan in shaping the statehood traditions of the peoples of Central Asia, as well as its contribution to the development of world civilization.

Index Terms: Turan, statehood, ancient states, Central Asia, state administration, political system, historical development, statehood traditions, civilization, socio-economic relations.

Biz kim, Mulki Turon Amiri Turkistonmiz,
Biz kim, millatlarning eng qadim va eng ulug‘i,
Turkning bosh bo‘g‘inimiz.
Amir Temur

Dolzarbligi:

“Turon zaminning davlatchilikdagi tutgan o‘rni” mavzusining dolzarbligi, avvalo, o‘zbek davlatchiligi tarixining qadimiy ildizlarini chuqur o‘rganish, Turon hududida shakllangan ilk davlat uyushmalari, siyosiy boshqaruv an’analari va tarixiy taraqqiyot jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil etish zarurati bilan belgilanadi. Turon zamini qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda vujudga kelgan davlatlar, siyosiy tuzilmalar va boshqaruv tajribalari mintaqa xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutgan.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash, ajdodlar merosini asrab-avaylash va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Turon hududida davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi, qadimgi davlatlarning siyosiy boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hamda diplomatik aloqalarini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki muhim ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega.

Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, Turon zaminida faoliyat yuritgan qadimgi davlatlar, turkiy xalqlar davlatchilik an’analari va Amir Temur kabi buyuk tarixiy shaxslarning davlat boshqaruvi tajribasini xolisona baholash zarurati bilan ham izohlanadi. Ayniqsa, Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish, qonun ustuvorligini ta’minlash, mamlakatda tartib-intizomni mustahkamlash va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish borasidagi faoliyatini tarixiy manbalar asosida tadqiq etish bugungi davlatchilik tajribasini anglash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Turon zaminining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni, uning ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq va xalqaro aloqalar rivojiga qo‘shgan hissasini yoritish orqali mintaqa tarixining umuminsoniy ahamiyatini ochib berish mumkin. Mazkur mavzuni o‘rganish tarixiy jarayonlarni uzviylik va vorisiylik tamoyillari asosida tahlil qilish, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy asoslarini aniqlash hamda yosh avlodning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Turon zaminning davlatchilikdagi tutgan o‘rni” mavzusining dolzarbligi Turon hududida shakllangan davlatchilik an’analarini tarixiy manbalar asosida chuqur o‘rganish, ularning Markaziy

Osiyo xalqlari tarixidagi ahamiyatini ochib berish va ushbu tarixiy merosning bugungi milliy davlatchilikni anglashdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash bilan belgilanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi:

“Turon zaminning davlatchilikdagi tutgan o‘rni” mavzusining o‘rganilganlik darajasini yoritishda Turon va Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllangan davlatlar tarixi, siyosiy boshqaruv tizimi, etnik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda davlatchilik an’analariga oid yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu keng tarixiy davrlarni qamrab olgani sababli uni o‘rganishda qadimgi yozma manbalar, antik mualliflarning asarlari, o‘rta asr tarixchilari merosi, sharqshunoslik tadqiqotlari hamda zamonaviy O‘zbekiston tarixshunosligida yaratilgan ilmiy ishlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinishi lozim.

Turon zaminining tarixiy geografiyasi, qadimgi aholisi va dastlabki davlat tuzilmalarini o‘rganishda yunon-rim mualliflarining asarlari muhim manba hisoblanadi. Xususan, Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya”, Arrianning “Aleksandr yurishlari” va Kvint Kursiy Rufning Aleksandr Makedonskiy yurishlariga bag‘ishlangan asarlarida Baqtriya, So‘g‘diyona, saklar va massagetlar haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarda mintaqa aholisining turmush tarzi, siyosiy munosabatlari, harbiy salohiyati va tashqi kuchlarga qarshi kurashi aks etgan. Biroq mazkur asarlar mualliflarning o‘z davri va dunyoqarashi ta’sirida yozilganligi sababli ulardagi ma’lumotlarni boshqa yozma va arxeologik manbalar bilan solishtirib o‘rganish talab etiladi.

Qadimgi Turon hududidagi davlatchilikning ma’naviy va mafkuraviy asoslarini tadqiq etishda “Avesto” alohida o‘rin tutadi. Unda qadimgi aholining dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me’yorlari, xo‘jalik faoliyati va jamiyat hayotini tartibga soluvchi qarashlari haqida ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, qadimgi fors bitiklari, jumladan, Behistun yozuvlari hamda boshqa epigrafik manbalar Ahamoniylar davrida Baqtriya, So‘g‘diyona va mintaqaning boshqa hududlaridagi siyosiy-ma’muriy munosabatlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turon zaminining davlatchilik tarixini o‘rganishda o‘rta asr Sharq tarixchilari va geograf olimlarining asarlari ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Jumladan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalarning tarixiy-geografik asarlarida mintaqaning siyosiy hayoti, hukmdorlar faoliyati, shaharlar taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlariga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu manbalar Turon hududidagi davlatchilik an’analarining tarixiy davomiyligini o‘rganish imkonini beradi.

XIX asr oxiri va XX asr davomida Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish sharqshunoslik, arxeologiya va tarixshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda olib borilgan tadqiqotlarda qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm va boshqa tarixiy hududlarning siyosiy tarixi, moddiy madaniyati hamda davlat boshqaruvi masalalariga e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda davlatchilik tarixi muayyan mafkuraviy yondashuvlar asosida talqin etilganligi sababli, ularning xulosalarini zamonaviy ilmiy mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

O‘zbekiston tarixshunosligida Turon va qadimgi davlatchilik masalalarini o‘rganishda A. Asqarov, A. Sagdullayev, E. V. Rtveladze, Sh. Shaydullayev, A. Anorboyev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ularning ilmiy izlanishlarida qadimgi aholi manzilgohlari, arxeologik yodgorliklar, ilk shaharsozlik madaniyati va davlat tuzilmalarining shakllanishiga oid masalalar tadqiq etilgan. Xususan, qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona va Xorazm tarixiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar mintaqada davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, B. Eshovning O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixiga oid tadqiqotlari mavzuning nazariy va tarixiy asoslarini yoritishda ahamiyatlidir. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda qadimgi davlatlarning tashkil topishi, siyosiy boshqaruv shakllari, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar hamda davlatchilik an’analarining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini milliy manfaatlar, tarixiy xolislik va yangi metodologik yondashuvlar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada qadimgi davlatchilik tarixi, turkiy xalqlarning siyosiy merosi, Amir Temur va Temuriylar davridagi davlat boshqaruvi hamda milliy davlatchilik an’analarining tarixiy ildizlariga doir masalalar yangicha

ilmiy qarashlar asosida tadqiq etila boshlandi. Zamonaviy tarixshunoslikda yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik, numizmatik, epigrafik va boshqa moddiy manbalardan foydalanish tadqiqotlarning ilmiy asoslanganligini kuchaytirmoqda.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda ham Turon tarixining turli davrlari va manbashunoslik muammolariga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, Turonning qadimgi davri arab tarixshunosligida qanday yoritilganiga bag‘ishlangan 2026-yilda himoyaga taqdim etilgan PhD dissertatsiyasi mavzuning yangi manbalar va zamonaviy tarixshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavzuning o‘rganilganlik darajasini baholashda muhim bir jihatni hisobga olish lozim: Turon zaminida mavjud bo‘lgan davlatlar tarixi alohida-alohida tadqiqotlarda keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularning davlatchilik an’analari, siyosiy boshqaruv tajribasi va tarixiy vorisiyligini yagona tahliliy yondashuv asosida umumlashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, “Turon” tarixiy-geografik tushunchasining turli davrlardagi mazmuni, uning Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm, turkiy davlatlar va keyingi siyosiy tuzilmalar tarixi bilan o‘zaro aloqalarini manbalar asosida aniqlashtirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, Turon zaminining davlatchilikdagi tutgan o‘rni masalasi tarixshunoslikda muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, mavjud tadqiqotlar mavzuning alohida davrlari, davlatlari va siyosiy jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy asos yaratgan. Biroq Turon hududidagi davlatchilik tajribasini tarixiy davomiylik, hududiy o‘zgarishlar, siyosiy boshqaruv va madaniy aloqalar nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish zarurati mavjud. Mazkur maqola ana shu masalalarni umumlashtirish, tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida Turon zaminining Markaziy Osiyo davlatchiligi taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berishga qaratiladi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turon zamini Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi shakllanishi va taraqqiy etishida muhim tarixiy hududlardan biri hisoblanadi. Qadimgi davrlardayoq ushbu hududda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi dastlabki davlat tuzilmalarining vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan.

Tadqiqot davomida Turon hududida shakllangan Baqtriya, So‘g‘diyona va Xorazm kabi tarixiy-madaniy o‘lkalar mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgani aniqlandi. Ushbu hududlarda davlat boshqaruvi, hududiy tashkilotchilik, xo‘jalik yuritish, harbiy mudofaa va tashqi aloqalarning rivojlanishi davlatchilik tajribasining takomillashib borishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, Turon zaminida turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan siyosiy tuzilmalar faoliyati davlatchilik an’analarining o‘zgaruvchan va davomiy xususiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi savdo, diplomatik aloqalar va madaniy munosabatlar siyosiy tajriba almashinuviga, boshqaruv usullarining takomillashishiga hamda shaharlar taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Turon zaminining davlatchilik tarixini o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik topilmalar, qadimgi yozuvlar, numizmatik materiallar va tarixiy-geografik ma’lumotlardan kompleks foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv tarixiy voqealarni xolisona baholash, qadimgi davlatlarning siyosiy tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot Turon zaminining Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixidagi o‘rni faqat qadimgi davlatlarning vujudga kelishi bilan cheklanmasdan, balki siyosiy boshqaruv tajribasi, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy aloqalar va tarixiy an’analarning shakllanishi bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Olingan natijalar Turon tarixini yanada chuqur o‘rganish, milliy davlatchilikning tarixiy ildizlarini anglash hamda ushbu merosni ilmiy va ma’rifiy jihatdan targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turon past tekisligi O‘rta Osiyoning shimoli-g‘arbi va Qozog‘istoning janubi g‘arbidagi tekislikda. Biz ushbu hudud haqida to‘xtalib otamiz. Uni G‘arbiy sibir tekisligidan-Kustanay soyligi ajratib turadi. Janubiy etaklari Pomir tog‘lari, janubda Kopet tog‘ oldi burmasi, g‘arbda Kaspiy

dengizi bilan chegaradosh. Maydoni 1,5 mln kv km (Perm davrida) gersen burmalanishida hosil bo‘lgan. Amudaryo, Sirdaryo, Tajan, Murgob, Chu, Sari suv, Zarafshon, Qashqadaryo, Turgoy, Yegiz, kabi qadimgi va hozirgi daryo deltalar allyuvial tekisligidir.

Manbalardan ma’lumki, Turon kengliklarida mezozoy davrida- «Tetis» deb atalgan dengiz bo‘lgan. Ushbu dengiz 5 mln yil oldin ko‘rib ketishi natijasida, maskur mintaqa hozirgi tabiiy-jug‘rofiy ko‘rinishini kasb etgan. Tetisning ko‘rishi davridan boshlab, «Turon» tabiati quruqlikda uzluksiz davom etgan. Muzlik davrning ikkinchi yarimida «Turon» tekisliklariga ilk insonlarning kelib o‘rnashuvi kuzatilgan.[1.25]

Turon-Turkiy xalqlar o‘rnashgan o‘lka. Turon atamasi-dastlab-«Avesto»da tilga olingan. Tarixshunoslarning fikricha, turklar oriy xalqlarining tarmog‘i hisoblangan. VI asrda O‘rta Osiyo hududi turk xoqonligiga utishi bilan Turon nomi turklarga nisbatan beriladigan bo‘ldi. Amudaryo va Sirdaryodan to buyuk Xitoy devorlarigacha turkiylar mamlakatlari tushuniladi. O‘rta asir adabiyotlarida Eron va Turon o‘rtasidagi hududiy chegara Amudaryo orqali belgilanadi. Turon-bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma’noni bildirib, keyinchalik «Turkiston» tushunchasiga aylangan.

Turkiyalik olim Usmon Turonning «Turkiy xalqlar mafkurasi» nomli asarida ushb atamaga urg‘u beradi.[2.33]

Aslida, Xitoy manbalaridagi «Ashina» so‘zini turki saltanat bo‘lmish, Kushon davlati nomi bilan, ya’ni «Kushon» eng qadimgi turki «Bo‘ri» tushunchasini ifoda etuvchi so‘z bilan bog‘lab tushuntirish ilmiy jihatdan asosli ko‘rinadi (bu so‘z bilan bir o‘zakdosh bo‘lgan «Qashqir» so‘zi hali ko‘pgina tilarda saqlanib qalmoqda). L.Gumilev turkiy tarixini mo‘g‘ullashtirishda davom etib, Xitoy manbalarida «Ashina xonlari qo‘l ostidagilarni ifoda etish uchun ishlatilgan «tu-kyu» so‘zida «Turkut» so‘zini ko‘radi va undagi -o‘t qo‘shimchasini esa, mo‘g‘ulcha ko‘plik qo‘shimchasi deb ishonadi va ishontirishga Urinadi. Ya’ni L.Gumilev o‘z zamonasida e’lon qilingan V.V.Rodlovning «Turkiy lahjalar lug‘ati tuzish tajribalari» (keyinroq «Qadimgi turk lug‘ati» nomi bilan ham nashr etilgan)dan bexabarligini ko‘rsatib qo‘ydi. O‘sha lug‘atda-T. Qo‘shimchasi qadimgi turki tilida mavhum tushunchali ot yasashi aytilgan va bunga misolda ham berilgan. Buning ustiga agar L.Gumilevda filologik ma’lumot yetarli bo‘lganida turkiy tilarda etnonimlar ko‘plik qo‘shimchasi bilan yasalmasligini, chunki bu tilda etnonim jamlovchi ma’noga ega ekanligini payqagan bo‘lar edi. Hozirgi turkiy tillarda uchraydigan o‘zbeklar, qozoqlar, ruslar kabi forma yasalishi ham turkiy tillarga hind-yevropa tillari ta’siri natijasidir.

Hatto hozir ham «O‘zbeklar bunaqangi bo‘lmaydi»dan ko‘ra «O‘zbek bunaqa bo‘lmaydi» turkiyroqdir. Demak, «Turkut» shaklli mavjud bo‘lganida ham undagi-t(ut) mo‘g‘ulcha ko‘plik qo‘shimchasi emas, balki boshqa etnonimdir. Tarixan o‘zidan hujjatlar qoldirgan dastlabki turki davlat bo‘lmish Turk xoqonliklarini va uning asosiy bunyodkori turkilar bilan ilk turkiy xalq va davlat bo‘lmish xunlar va ularning imperatorligi orasidagi bog‘lanishini ham yo‘qqa chiqaradi. «Turklar o‘z tarixini olamning boshlanishidan hisoblasalar-da, ularning dunyoqarashidan kelib chiqilsa, bu dunyo uncha qadimiy emas. Olamning ibtidosi VI asr boshlaridir. Turklar o‘z ajdodlari Xunlar haqida hech narsa bilmas edilar». Bu fikr juda asosiz bo‘lmasa ham, unda turklar o‘z o‘tmishidan mutlaqo uzilgan bir qavm sifatida namoyon etiladi. Bu faraz to‘laligicha Urxun Yenesey bitiklari matiniga tayanganligi uchun, matn esa olamning yaratilishi yoki turklarning tarixiga emas, balki bir turkiy sulola tarixiga bag‘ishlangani uchun bunday keskin xulosaga, ishonging kelardi,-afsus!

Xitoylar «Xun» deb atalgan ajdodlarimizni, o‘sha zamondagi turklar ham «Xun» deb ataganmikanlar?!

Gap buyuk turkchi olim L.Gumilevning, bizning nazarimizda, turkiy tarixini o‘rganishda turk filologiyasiga e’tiborsizligi natijasida yo‘l qo‘ygan ayrim kamchiliklari haqida ketayotgan ekan, uning «Yada» toshi va u bilan bog‘liq bo‘lgan fikrini ham chetlab o‘tib bo‘lmaydi.

«YADU» so‘zining o‘zi fors tilidan o‘zlashtirilgandir. Garchi Eronda «shaman» so‘zi noma’lum bo‘lmasa ham, Firdavsiy turk sehrgarini aynan o‘sha so‘z bilan ataydi.[3.5-6.] O‘zbek tilida uchraydigan «yotig‘i bilan tushuntir» iborasidagi «yotiq» ham ushbu siraga kelib qo‘shiladi. Bundan tashqari, tabiati jismlarini ilohiylashtirish Eronliklarga nisbatan ko‘proq tur

O‘zbek tilida uchraydigan «yotig‘i bilan tushuntir» iborasidagi «yotiq» ham ushbu siraga kelib qo‘shiladi. Bundan tashqari, tabiati jismlarini ilohiylashtirish Eroniylarga nisbatan ko‘proq turklarga xosdir. Fors manbalari ham bir ovozdan yada toshi va uning vositasida bajariladigan diniy tadbirlar to‘laligicha turklarga xos deb hisoblaydilar. Umuman, «bitikni» Xitoy tilidan (V.V.Rodlov kabi til bilimdoni turki tilda biti-feli o‘zakgi bor bo‘lishiga ham qaramay, bu «madaniy so‘z» Xitoychadan o‘zlashgan bo‘lishini o‘tkazmoqchi bo‘lgan.

Jahon tarixi sahnasidan qadimgi turk xalqi tarixiga, uning tuzgan davlatiga boqilsa, tabiiy bir savol tug‘iladi; aslida bevosita avlodlari hisoblanmaydigan ko‘pgina qavmlarga o‘z nomini meros qilib qoldirgan turklar nima uchun tarix sahnasida paydo bo‘ldi-yu?, nima uchun g‘oyib bo‘ldi? Ushbu muammoni yechish uchun faqat siyosat tarixini, yoxud faqat ijtimoiy munosabatlarni bir necha bor tahlil qilishlar samara bermadi.

Qadimgi turklar insoniyat tarixida juda muhim o‘rin egallagan bo‘lishiga qaramay ular son jihatdan juda oz edilar.

Turklarning Xitoy va Eron bilan yaqin qo‘shni bo‘lishi esa, ularning ichki ishlarida aks etmasdan iloj yo‘q edi. Binobarin, bu esa ba’zi mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tarixiga chambarchas bog‘lanib kelgan ekan hodisalar jarayonini tiklash uchun o‘sha mamlakatlardagi jarayonlarni ham e’tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Vaziyatga iqtisodiy holatning o‘zgarishi ham jumladan, Xitoy tovarlari chiqarilishining oz ko‘pligi yoki Eron hukumatining cheklovchi tadbirlari ham kam ta’sir etmagan. Olti yuz yillik oxirida turk xoqonligi chegaralari Vizantiya, janubda Eron, hatto Hindiston, sharqda Xitoyga borib taqalgan ekan, tabiiyki, mazkur mamlakatning o‘sha chog‘dagi tarixi turk saltanati taqdiri bilan bog‘langandir. Turk davlatining vujudga kelishi kishilik tarixida keskin burilish hosil qildi, chunki bungacha O‘rtaer dengizi va uzoq sharq madaniyati, garchi bir-birining borligidan bexabar bo‘lmasalar-da, uzilgan, ajralgan holda mavjud edilar. Poyonsiz cho‘llar, baland tog‘ tizmalari sharq va g‘arbning aloqasi uchun to‘siq bo‘lib turardi. Keyinroq (ixtiro etilgan) kashf etilgan metall, uzangi, yuk ulovlari arava o‘rnida ishlatila boshlagach, karvonlar sahro va tog‘ dovonlaridan nisbatan oson va tez utish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuning uchun ham VI asrda Xitoylik Kostantinopol bozoridagi narx-navo bilan hisoblashishga majbur bo‘lsa, Vizantiyaliklar esa Xitoy xoqonining pul zarb etuvchilari sonini hisoblash bilan mashg‘ul edilar. Hozirda janubiy Sibir, Mo‘g‘uliston va O‘rta Osiyoda muttasil olib borilayotgan arxeologik qazish ishlari, bazi-bir sun’iy fikrlarni rad etmoqda va tezda shunday kunlar keladiki, endi biz qadimiy turklar san’ati to‘g‘risida, ularning moddiy madaniyatidan ko‘proq gapira olamiz. Ana shuning uchun ham g‘arbiy turklarning pog‘onali ulush tizimi, mansab zinalari, harbiy intizom, diplomatiya kabi ijtimoiy institutlari va ijtimoiy hayotning murakkab shakllari tadqiqotchilarni lol qoldiradi.

Bundan tashqari qushni mamlakatlarning ashaddiy qarshi mafkuraviy tizimiga qarama-qarshi quyilgan, aniq-tiniq ishlabchiqilgann turklarning dunyoqarashiga tan bermaslikning iloji yo‘q edi.

Shunga qaramasdan, qadimgi Turk jamiyati tutgan yil halokatga eltuvchi yo‘l edi, chunki dashtda va uning chegaralarida paydo bo‘lgan ziddiyatlarni hal etishning chorasi yo‘qdek edi. Ammo turk nomi yo‘qolib ketmadi. Yo‘qolib kemasidagina emas, aksincha Turklar Osiyoning yarmiga tarqaldi. Arablar So‘g‘dan shimoldagi jangari ko‘chmanchilarning barchasini turk deb atay boshladilar. Ular esa bu nomni e’tirozisiz qabul qildilar. Zotan, Turk nomining dastlabki egalari yer yuzidan yo‘qolib ketmasdan. Bugun barcha davlat xalqlari uchun jasorat va qahramonlikning bir namunasi bo‘lgan edilar. Keyinroq esa bu el nomi ma’nosi kengayib, til oilasining atamasi bo‘lib qoldi. VI–VII asrlardagi Buyuk Turk xoqonligi hududga hech vaqt kirmagan, keyinchalik boshqa xalqlar ham turklarga aylanib qolganlar. Ularning ba’zilari hatto mongoloid ham emas; turkmanlar, usmonli turklar, ozarbayjonlar, qipchoq birlari esa xoqonlikning avlodlari hisoblanadi.

Masalan, uyg‘urlarning ajdodlari bo‘lgan qarluq qabilasi haqida hikoyalar mavjud. Turklar esa, masalan, bolgar (bulg‘or) va boshqa qadimiy turklarning o‘zidan kelib chiqqan elatlar bo‘lib, hozirda keng tarqalgan “turk”, “turkiy” atamalari o‘z asoslariga ega. Qadimiy Xunlar davrida turklar III–IV asrlarda biroz murakkab holatda bo‘lgan. III–IV asrlarda biroz murakkab holatda bo‘lgan davrda madaniyatning yangi shaklda maydonga olib chiqilishi kuzatiladi. Bu davrda o‘z

xalqining kelib chiqishi haqida turli fikrlar yuzaga kelgan. Misol tariqasida, ularni turk birligiga bog‘lagan olimlardan German Vaberi (Vengeriya) nomi tilga olinadi.[4.92]

Afsuski, Xitoy va boshqa yozma manbalarda turklar haqidagi ma’lumotlar turlicha talqin qilingan. Rus va rus-sovet olimlari kabi L.N. Gumilyov ham Vaberining ilmiy ishlarini tanqid qilgan. Bu holat ushbu masalaga nisbatan jiddiy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Bosim Husayn o‘g‘li, Talat Tekin, Muzaffar Erisin, Zeki Validiy To‘g‘on kabi olimlar ilmiy asarlarida muammoga yechim topishga harakat qilganlar va e’tiborsizlik hamda noto‘g‘ri qarashlarga qarshi chiqib, tadqiqotlarni davom ettirganlar.

Ma’lumki, sovet tarixshunosligida xunlar turkiy qabilalar ekanligiga e’tibor berilgan. L.N.Gumilyovning [5.33] “Xunnu” asarida xunlar Xitoy tarixida birinchi bor mil. avv. III asrda, ya’ni mil. avv. 822 va 304 yillardagilarga taalluqli ma’lumotlar bilan qayd etilgani ta’kidlanadi.

Professor A. Xo‘jaev so‘nggi yillarda Xitoy va Yaponiya olimlari bilan hamkorlikda Xitoyning eng qadimgi tarixiy manbalari asosida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu izlanishlar natijasida turk atamasi Xitoy manbalarida bundan qariyb 4 ming yil avval paydo bo‘lgani haqida xulosalar ilgari surilgan.[6.178]

A.Xo‘jaevning Xitoy manbalariga asoslangan ishlarida mil. avv. II ming yillik oxirlarida paydo bo‘lgan ilk davlatlar tarixi va madaniyati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Xitoy podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy hududlarida yashagan turkiy qabilalar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Bugun barcha davlat xalqlari uchun jasorat va qahramonlikning bir namunasi bo‘lgan edilar. Keyinroq esa bu el nomi ma’nosi kengayib, til oilasining atamasi bo‘lib qoldi. VI–VII asrlardagi Buyuk Turk xoqonligi hududida hech vaqt kirmagan keyinchalik boshqa qabilalar ham turklarga aylanib qoldilar. Ularning ba’zilari hatto mongoloid ham emas; turkmanlar, usmonli turklar, ozarbayjonlar, qirg‘iz birlari esa xoqonlikning avlodlari edilar.

Masalan, uyg‘urlarning ajdodlari bo‘lgan qarluqlar haqida ning bobolari bo‘lgan qirg‘izlar. Shuningdek, turklar esa, masalan, bolgar (bulg‘or) va [7.200-201] qadimiy turklarning o‘zidan kelib chiqqan edilar. Biroq hozirda keng tarqalgan «turk», «turkiy» atamalari o‘z asoslariga ega.

Qadimiy Xunlar davrida turklar III–IV asrlarda biroz murakkab holatda bo‘lgan – madaniyatning yangi shaklda maydonga olib chiqilishi bilan bog‘liq.

Bu yerda o‘z xalqining kelib chiqishi haqida turli fikrlar paydo bo‘lgan. Ular turk birligiga bog‘langan. Nemis olimi German Vaberi.

Afsuski, Xitoy yozma manbalarida, tarixiy bugun barcha davlat xalqlari uchun jasorat va qahramonlikning bir namunasi bo‘lgan edilar. Keyinroq esa bu el nomi ma’nosi kengayib, til oilasining atamasi bo‘lib qoldi. VI–VII asrlardagi Buyuk Turk xoqonligi hududida hech vaqt kirmagan keyinchalik boshqa qabilalar ham turklarga aylanib qoldilar. Ularning ba’zilari hatto mongoloid ham emas; turkmanlar, usmonli turklar, ozarbayjonlar, qirg‘iz birlari esa xoqonlikning avlodlari edilar.

Masalan, uyg‘urlarning ajdodlari bo‘lgan qarluqlar haqida ning bobolari bo‘lgan qirg‘izlar. Shuningdek, turklar esa, masalan, bolgar (bulg‘or) va qadimiy turklarning o‘zidan kelib chiqqan edilar. Biroq hozirda keng tarqalgan «turk», «turkiy» atamalari o‘z asoslariga ega.

Qadimiy Xunlar davrida turklar III–IV asrlarda biroz murakkab holatda bo‘lgan – madaniyatning yangi shaklda maydonga olib chiqilishi bilan bog‘liq.

Bu yerda o‘z xalqining kelib chiqishi haqida turli fikrlar paydo bo‘lgan. Ular turk birligiga bog‘langan. Nemis olimi German Vaberi.

Afsuski, Xitoy yozma manbalarida, tarixiy Bosim Husayn o‘g‘li, Talat Tekin, Muzaffar Erisin, Zeki Validiy To‘g‘on ilmiy asarlarida muammoga yechim topishga harakat qilib, bee’tiborlik va e’tiborsizlik holatlariga qarshi chiqib, tadqiqotlarni davom ettirishni ko‘rsatadilar.

Ma’lumki, sovet tarixshunosligida xunlar turkiy qabilalar ekanligiga e’tibor qaratilgan. L.N.Gumilyovning «Xunnu» asarida xunlar Xitoy tarixida birinchi bor mil. avv. III asr, ya’ni mil. avv. 822 va 304 yillarda tilga olingani qayd etiladi. Prof. A.Xo‘jaev so‘nggi yillarda Xitoy va Yapon olimlari bilan hamkorlikda Xitoyning eng qadimiy tarixiy manbalari asosida jiddiy tadqiqotlar olib borgan va shu izlanishlar natijasida turk atamasi Xitoy manbalarida bundan qariyb 4 ming yil avval paydo bo‘lganligi haqida xulosalar keltirgan. A.Xo‘jaevning Xitoy manbalariga

asoslangan ishlarida mil. avv. II ming yillik oxirlarida paydo bo‘lgan ilk davlatlar tarixi va madaniyati haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Xitoy podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy hududlarida yashagan turkiy qabilalar haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Xitoy podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy hududlarida yashagan turkiy qabilalar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. muhim ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Xitoy podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy hududlarida yashagan turkiy qabilalar haqida ham ma’lumotlar uchraydi.

Turk davlatining qadimiy topilmalari va tamadduni mavjud. Sibir, uning xalqi va tabiati maftuni bo‘lgan N. Yadrinsev o‘lkaning tarixchisi va elshunos (etnografi), qadimshunosi (arxeologi) va iqtisodchisi, publitsisti, xalq maorifi arbobi sifatida yillar davomida ish olib bordi. U Sibirning bir vaqtlar juda boy, madaniyati yuksak o‘lka bo‘lganligiga ishonar, shuning uchun bu yo‘lda tinimsiz izlanar, o‘zini ayamas edi.

N.Yadrinsev Ugor-Oltoy qabilalari bilan allaqachonlardan beri qiziqish barobarida turk sulolasining afsonaviy poytaxti Qoraqurum to‘g‘risida eslatib o‘tilgan rus va chet el adabiyotlarini ko‘zdan kechirdi. Biroq bir satrini ham qoldirmay, sinchkovlik bilan o‘rganib chiqdi. Biroq eng qiyin ilmiy ish safarni tashkil qilish edi. Buning uchun ko‘p vaqt va kuch sarflandi. Qolaversa, mablag‘ ham, yo‘l ko‘rsatuvchi ham yo‘q edi. 10 ta ot bilan 2 ta arava topildi. Maqsad va ishonch ularni olislarga yetaklab borardi. Ular Tula daryosi yaqinida XII asrda qurilgan Irxe-Merganxon saroyining xarobalariga duch kelishdi.

Xo‘jalik va ibodatxona vayronalari, Toshin xil termasida topilgan marmar poydevorli bahaybat bino qoldiqlari ularga birmuncha dalda berdi. [8.16-18] Maqsad va ishonch ularni olislarga yetaklab borardi. Ular Tula daryosi yaqinida XII asrda qurilgan Irxe-Merganxon saroyining xarobalariga duch kelishdi.

Xo‘jalik va ibodatxona vayronalari, Toshin xil termasida topilgan marmar poydevorli bahaybat bino qoldiqlari ularga birmuncha dalda berdi.[9.18-19]

Turon zaminining davlatchilik tarixini qisman o‘rganishimiz kuydagi xulosalariga olib keldi:

1) Ushbu bizga ma’lum va noma’lum bo‘lgan hudud manbalarini arxeologiya,etnografiya va boshqa manbalar orqali yanada chuqurroq va teranroq o‘rganish va taqqoslash zarur.

2) Agar lozim bo‘lsa, ushbu hududning o‘rganilishiga bag‘ishlab xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar o‘tkazish:

3) Turli xalqaro yoki davlatlar bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar uyushtirish va xalqaro grantlar asosida tadqiqotlar olib borish:

4) Ushbu xalqaro tadqiqotlarni turli yirik davlatlarning telekanallarida chiqishlar qilish va internet saytlarida joylashtirish maqsadga muvofiq bular edi.

5) Turli xalqaro akademiyalarda ilmiy tuplangan va yig‘ilgan ma’lumotlar asosida monografiyalar va to‘plamlar nashr etish.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Turon zamini jahon sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallagan qadimiy tarixiy-madaniy hududlardan biridir. Ushbu hududda qadimdan shakllangan siyosiy tuzilmalar, davlat boshqaruvi tajribasi, iqtisodiy munosabatlar va madaniy aloqalar mintaqaning tarixiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Turon zaminida yuzaga kelgan Baqtriya, So‘g‘diyona va Xorazm kabi tarixiy o‘lkalar siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Turon hududida davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi tabiiy-geografik sharoitlar, xo‘jalik faoliyati, aholi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda tashqi siyosiy aloqalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Dehqonchilik va chorvachilikning taraqqiy etishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning kengayishi, shaharlarning rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimlarining shakllanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Turon davlatchiligi tarixining muhim jihatlaridan biri turli siyosiy tuzilmalar va davlatlar faoliyati davomida boshqaruv tajribasining takomillashib borganidir. Mintaqada shakllangan siyosiy an’analar, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalar keyingi tarixiy davrlardagi davlatlarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida

davlat boshqaruvi, markazlashuv, diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohalarida to‘plangan tajriba Turon zaminining davlatchilik tarixidagi o‘rnini yanada namoyon etadi.

Shu bilan birga, Turon tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarga tanqidiy yondashish, yozma manbalarni arxeologik, numizmatik va epigrafik ma’lumotlar bilan qiyoslash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarni xolisona baholash, turli davrlardagi davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va davlatchilik an’analarining tarixiy taraqqiyotini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, Turon zaminining davlatchilikdagi tutgan o‘rni uning qadimiy siyosiy tajribasi, iqtisodiy va madaniy salohiyati hamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. Mazkur merosni ilmiy asosda o‘rganish milliy davlatchilik tarixining ildizlarini anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yosh avlodda ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli Turon zaminining davlatchilik tarixini yangi manbalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish bugungi tarixshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Toshboev Furqat Eshboevich. O‘zbekiston hududidagi migratsiyalar tarixi [Darslik]. 1-qism. Jizzax: “Ilm Nuri” MChJ, 2026. 25-bet.

2. Bahriddinov J.B. O‘rta asrlar O‘zbekiston tarixi [O‘quv-uslubiy qo‘llanma]. Jizzax: “Ilm Nuri” MChJ, 2025. 33-bet.

3. Л.Н. Гумилёв. Қадимги турклар. Тошкент: “Фан”, 2007. 5–6-бетлар.

4. Х. Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1990. 92-бет.

5. Л.Н. Гумилёв. Хунну. Москва, 1960. 33-бет. 6. Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларида туркий халқларга оид айрим этнонимлар // Ўзбекистон ўрта асрларда. Тарих ва маданият. Тошкент, 2003. 178-бет.

7. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент, 2007. 200–201-бетлар.

8. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. 117–119-бетлар.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000